

# Neft mahsulotlarini tug'ridan-tug'ri sotish

Sh A R T N O M A S I № 943

«23» Mart 2023 yil

Pastdargom t.

"Marokand neft bazasi" MCHJ, keyingi o'rirlarda «Mahsulot sotuvchi» deb yuritiluvchi nomidan NIZOM asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari J.T.Amirov bir tomonidan va SDVU keyingi o'rirlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi nomidan X.B. Yenusev nizom asosida faoliyat yurituvchi ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar hakida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Mahsulot sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini berish, «Iste'molchi» esa berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Sotiladigan neft mahsulotlarining turlari, ularning miqdori, narxi shuningdek, berish muddatlari quyidagi spesifikasiya jadvalida keltiriladi.

Neft mahsulotining nomi, rusumi	Dav. STTSN	O'Ichov birligi	Narxi	Miqdori	Summasi
Avtobenzin Ai-80	O'zDst 3031;2015				
Avtobenzin Ai-91		14	14 752 800	0,2	2950560
Avtobenzin Ai-92					
Avtobenzin Ai-95					
Diz.yonilg'isi Yevro K6					
Diz.yonilg'isi EKO	O'zDst 1134:2007	15	15 111 341	0,5	7555671

Spesifikasiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarni shakllantirishda, «Mahsulot beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

## 2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomanining taxminiyumiysummasi QQS bilar 10 506 231 so'mni shundan 12% QQS summasi 125 667,6 tashkilqiladi.

2.2. O'zbekiston Republikasi Prezidenti huzurida 2020 yil 4 may kuni o'tkazilgan №27-sonli yig'ilish bayonining 23-bandiga asosan beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Mahsulot sotuvchi» tomonidan Byudjet tashkilotlari, paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari va paxta-to'qimachilik klasterlari, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, "Tosh shaxar trans xizmat" AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha davlat korxonalariga dizel yoqilg'isi (shu jumladan EKO markali dizel yoqilg'isi) o'tgan haftadagi birja savdolari natijalariga ko'ra shakllangan o'rtacha birja narxlariда shakllanadi.

2.3. Sotiladigan neft mahsulotlarining narxlari «Mahsulot sotuvchi» tomonidan boshqa iste'molchilarga barcha neft mahsulotlari, neftni qayta ishlash zavodlaridan birja savdolari orqali sotib olish va tashib keltirish xarajatlari hamda sotish bo'yicha neft baza ustamasidanshakllanadi.

2.4. «Mahsulotsotuvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarini **5** kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Mahsulot sotuvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

2.5. Byeriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Mahsulot sotuvchi»ning bankdag'i hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## 3. MAHSULOT SOTISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Mahsulot sotuvchi»ning omboridan yoki unga qarashli filiallardan «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida ungaberilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchunto'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilgandagina beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ning xohishiga qarab (iste'molchida maxsus avtovositasiga bo'lmagan taqdirda) «Mahsulot sotuvchi»ning maxsus avtovositasida belgilangan tartib va kelishilgan qo'shimcha narxlar asosida yetkazib beriladi. Neft maxsulotlarini shuningdek «Iste'molchi» tomonidan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijara olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari kelishilgan kalkulyasiya asosida qayta ko'rib chiqiladi.

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtovositasida omor hududiga kiritilmaydi va ularga neft

mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Mahsulotsotuvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari quyilgan avtosisternalar (Iste'molchining avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Mahsulot sotuvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. va 3.2. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 15 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Mahsulot sotuvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zar olishib olishlari mumkin.

#### **4. NEFT MAXSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI**

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish “Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to‘g‘risida”gi P-6-sonli va sifati bo‘yicha esa “Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to‘g‘risida”gi P-7-sonli yuriqnomalar xamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtida mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib bergenlik to‘g‘risidagi tegishli hujjatlar «Mahsulot sotuvchi»ning omborida yoki unga qarashli filiallarda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo‘lishi, neft maxsulotlariga ziyon yetish xavfi «Mahsulot sotuvchi»ombori yoki AYOQSH xududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

#### **5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI**

5.1. «Mahsulot sotuvchi», «Iste'molchi»ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neftmahsulotlarini berishni kafolatlaydi. Sotiladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-sen Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo‘lishi hamda bu neft mahsulotlarini maxsus avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarada qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

#### **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to‘g‘risida»gi konuniga binoan javobgar bo‘ladilar.

6.1.1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021 yildagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6313-sonli Farmonining 3-qism v) bandiga muvofiq:

- har bir tomon, shu jumladan barcha xodimlar, vakillar, shuningdek ular tomonidan jalb qilingan yoki ular nomidan ish olib boradigan boshqa shaxslar, boshqa Tomonga, uning xodimlariga, vakillariga, potensial yoki mavjud mijozlarga va har qanday tegishli Hamkorlariga, shuningdek, boshqa Tomon tomonidan jalb qilingan yoki uning nomidan ish yuritadigan boshqa shaxslarga (“Ishtirokchi Tomonlar”) moddiy/nomoddiy rag‘batlantirish, manfaat, taqdirlash, takliflar (shu jumladan, cheklanmagan holda, har qanday to‘lov shakli, sovg‘alar va boshqa mulkiy imtiyozlar, mukofotlar va manfaat (pul yoki har qanday qiymat ko‘rinishida)) bermaslikni ya’ni, moliyaviy mukofot, mulk, mulk huquqini taklif qilmaslikni, bermaslikni kafolatlaydi va shunga majbur.

- bir taraf korrupsiyaga qarshi amaldagi qonun hujjatlari, korrupsiya bo‘yicha qo‘llaniladigan Siyosat va Qoidalar talablari buzilgan taqdirda, boshqa tarafni yozma ravishda xabardor qilgan holda bu Shartnomani bekor qilingha haqli. Ikkinci tarafga tegishli bildirishnomalar yuborgan paytdan boshlab Shartnomani bekor qilingan hisoblanadi. Bunday holda, birinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni qoplaydi.

6.2. «Mahsulot sotuvchi» neft mahsulotlarini o‘z vaqtida bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun neft mahsulotlari so‘mmasining 0,5 foizi, lekin etkazib berilmagan neft mahsulotlari so‘mmasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

6.3. Yetkazib berilgan “Neft mahsulotlari” uchun o‘z vaqtida haq to‘lanmaganda Xo‘jalik Yetkazib beruvchiga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bu kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘imasligi kerak.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmaganneft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Mahsulot sotuvchi»ga olinmagagan mahsulot umumiyligi qiyomatining 5 foizi miqdorida jarima to‘laydi va ta’minotchi olinmagagan mahsulot uchun mahsulotning to‘lik qiyomatini undirish xuquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o‘zining xududiga olib kelingan neft maxsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong‘in va texnik xavfsizligi talab va meyorlari to‘liq amal qilinishiga to‘liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

## 7. FORS-MAJOR XOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

## 8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan xar qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iktisodiy sudlar orqalihal etiladi.

8.2. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukuiy kuchga ega.

8.4. Shartnomatomonlar o'rtasida imzolanganva «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2023 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## 9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«Mahsulot sotuvchi»

«Marokandneftbazasi» MCHJ

Pastdargomtumani ,Arabxonakishlogi  
x/r 20210000400440931001

MFO 00440 «Uzsanoatkurilishbank» ATB  
Yashnobodfiliali INN 202041686



J.T.Amirov

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI	
“Iste'molchi”	
Samarqand sh. M.Ulughbek ko'chasi 77-uy	
Tel/Fax +99866 234-70-92, 234-70-93	
“100010860184017094100150001”	
INN: 201878451, OKONX: 92110 MCHJ	
Samarqand viloyati g'aznachiligi boshqarmasi	
STIR: 2340 2000 3001 00 0000000000	
x/r Nolarkarbi bank NAM Toshkent shahri boshqarmasi	
ATB	
fli.	
MFO	
OKED	
Toshkent shahri	
X.B. Daryoev	

Xuquqshunosning xulosasi: Ushbu shartnoma loyixasi O'zbekiston Respublikasi Fukarolik Kodeksining 353 va 354 moddalari xamda 437-456-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunning 11 bo'lim 31, 32, 34-moddalari talablariga javob beradi

Huquqshunos

IINMS bulimi

Kat'a yuris houset  
N. Sereet